

FURQAT LIRIKASINING O'ZIGA XOS BADIYYATI

**Maftuna Abduvosiyeva**

*FarDU o'zbek tili yo'nalishi*

*3-bosqich talabasi,*

**Maxmidjonov Shoxruxbek**

*FarDU o'qtuvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakili Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat lirikasining, xususan, ayrim g'azal, muxammas va musaddaslarining o'ziga xos badiiyati tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Furqat lirikasi, g'azal, she'riy san'atlar, muxammas, taxmis.*

**Аннотация.** *В данной статье к анализу привлечено своеобразное искусство Фуркат-лирики, в частности, некоторых Газелей, мухаммасов и мусаддасов, забардастого представителя узбекской литературы закиржона холмухаммад оглы.*

**Ключевые слова:** *Фуркат лирика, газель, поэтические искусства, мухаммас, догадки.*

**Annotation.** *In this article, Zakhirjan Kholmuhammad, a representative of Uzbek literature, drew on the analysis of the lyrics of his son Furqat, in particular some ghazals, mukhammas and musaddas.*

**Key words:** *Furqat lyricism, ghazal, poetic arts, mukhammas, estimation.*

O'zbek adabiyotiga yangicha yo'nalishlar kiritgan shoir Furqat XIX asrning uchinchi choragida adabiyotimiz maydoniga kirib keldi. Adabiyotshunos olim Begali Qosimov uning asosan, lirik shoir ekanligini ta'kidlaydi. "Garchi u o'zbek tilidagi ilk gazetada ishlagan, o'nlab maqolalar e'lon qilgan birinchi o'zbek gazetachisi, "Sarguzashtnoma"dek asar yozgan nosir bo'lsa-da, xalq qalbida ko'proq shoir sifatida qoldi". Bu fikrlar isboti o'laroq, u o'zbek adabiyotida gumanistik lirikaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan shoir sanaladi. Furqatning lirik merosi o'zbek mumtoz adabiyotining go'zal namunalari. U ehtiros to'la g'azallari, erkka tashna musaddaslari, hijron iztiroblari barq urib turgan she'riy maktublari bilan adabiyotimizga toza, tiniq ohanglar olib kirdi.

Furqat ijodini o'rganar ekanmiz, undagi janrlar xilma-xilligi va rang-barangligini kuzatishimiz mumkin. Furqat, avvalambor, lirik shoirdir. Uning ijodida g'azal, muxammas, musaddas, manzuma, masnaviy kabi janrlar yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, dastlab uning ijodidagi g'azallarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning mavzu ko'lami kengligi, ehtirosga to'laligi kitobxonni o'ziga tortadi. Shoirning har bir g'azali o'ziga xos tuzilishga, ifoda va ruhiyatga ega. G'azallarda qo'llangan qofiya, radiflar-u badiiy san'atlar ijodkor maqsadini, uning ruhiyatini ochib berishga alohida xizmat qilgan. Shoir lirik merosining salmoqli qismi g'azallar bo'lib, ularning soni 200 atrofida: mavzulari, umumiy olib qaralganda, odam va



olam haqida. Inson – odamning ma’naviy dunyosi, mehri va qahri haqida, olamning obodligi, betimsolligi, olam va odam munosabatlari xususidadir. Furqat birinchi navbatda Navoiy va Fuzuliyini o’ziga ustoz deb biladi. Ko’proq shulardan ilhom oladi. Ba’zan bu ilhom mavzu va ohang uyg’unligi darajasiga ko’tariladi. O’z ijodining boshida uning yozgan g’azallari mumtoz adabiyot namunalariga xos latif lavhalardan iboratligi haqida akademik Aziz Qayumov tomonidan uning g’azallarini nashrga tayyorlagan adabiyotshunos A.Turdialiyevning “Muhabbat yo’lida” nomli she’riy to’plam so’zboshisida e’tirof etiladi. Unda: "yor go’zalligi, uning nafosatli surati, bezaklarining o’ziga yarashganligi, dilni maftun etuvchi fusunkor chiroyi o’z aksini topgan"<sup>22</sup>, -deydi.

Furqat she’rlarida ona yurt tabiati va bahor go’zalligi, jo’shqin sevgi-muhabbat va chin insoniy fazilatlar, hayot shodliklaridan quvonish va turmush tashvishlaridan shikoyat qilish, umuman, odam va olam, kishilarning ma’naviy dunyosi, mehri va qahri yaqqol tasvirlangan. Masalan, “Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo’lsa”, “Umr xush o’tmas bahor ayyomi sahro bo’lmasa”, Surmadin ko’zlar qaro, qo’llar xinodin lolarang”, “Ko’ngul dardig’a topmay boraman hargiz davo istab”, “Fasli navbahor o’ldi ketubon zimistonlar” kabi misralar bilan boshlanuvchi g’azallari, “Etti falak”, “Biri”, “Istar ko’ngul”, “Do’st”, “Kokulung” radifli muxammaslari, Navoiy g’azallariga taxmislari davr she’riyatining ham g’oyaviy, ham badiiy jihatdan yetuk namunalari hisoblanadi.

Ta’kidlab o’tganimizdek, Furqat o’zbek adabiyotida mashhur g’azalnavis shoir sifatida qadrlanadi. Shoirning bir qator g’azallari aruz vaznidagi mumtoz lirikamizning go’zal namunalari hisoblanadi. Jumladan:

Yashnab o’tsang lolagun xil’at kiyib, aylab shitob,  
Tushmag’aymu rasa ahlin jonlarig’a pechu tob.

bayti bilan boshlanuvchi g’azali an’anaviy 7 baytni tashkil etadi. Qofiyalanish tartibi: a-a, b-a, d-a, s-a va hokazo. Ushbu g’azal aruzning ramal bahrida yozilgan bo’lib, ramali musammani mahzuf tarzida bo’ladi. G’azalning g’oyaviy mazmuniga kelinadigan bo’lsa, ushbu g’azal ishqiy-intim lirikaning ajoyib namunasi bo’la oladi.

Volai ruxsoring, ey, gul, gulshan ichra andalib,  
Ishqing emas, shavqing o’tida o’rtanib bo’lsa kabob.

Aytib o’tganimizdek, shoirning bu g’azali ishq-muhabbat mavzusida yozilgan bo’lib, lirik qahramon to’g’ridan to’g’ri yorga murojaat qiladi (ey, gul) Furqat lirikasida o’zini bulbulga qiyos etishining ko’plab namunalari uchraydi. Yuqoridagi baytda ham buni ko’rishimiz mumkin (andalib-bulbul). Buning asosiy sababi esa Furqat taqdir taqozosi va davr o’yinlari bois yurtidan olislarda yashashga majbur bo’ladi. Bu holdan chuqur qayg’uga tushgan shoir o’zini gulzoridan ayrilgan bulbulga qiyos etadi. Buni uning "Adashganman" muxammasida ham kuzatishimiz mumkin:

Kishi holimni bilmas mehribonimdin adashganman,

---

<sup>22</sup> ...Furqat. Muhabbat yo’lida, she’rlar-Toshkent. Yangi asr avlodi. 2009



Vatan ovoradurmen bo'stonidin adashganman,  
Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,  
G'aribi kuyi g'urbat xonumonidin adashganman,  
Va yo bir murg'i vahshiy oshyonidin adashganman.

"Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar..." misralari bilan boshlanuvchi g'azalga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu g'azal tabiat lirikasining go'zal namunasi hisoblanadi. Unda ko'klam kelishi bilan tabiatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni sinchiklab kuzatgan shoirning qalb kechinmalari o'z ifodasini topadi. Shoir o'tkinchi umrni go'zallik qo'ynida ezgulik bilan o'tkazishni istaydi. Chunki bahorgina emas, umr ham o'tkinchi - "g'animat":

Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,  
Do'stlar g'animatdur, sayr eting gulistonlar.

Bu g'azal aytib o'tganimizdek, tabiat mavzusida yozilgan g'azal bo'lib, 8 baytni tashkil etadi. Vazni: hazaji musammani ashtar vaznida bo'lib, bu g'azalning e'tiborli jihati - unda radif qatnashmagan. Bilamizki, g'azalda badiiy san'atlarlardan unumli foydalanish ijodkor ruhiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shoirning bu g'azalida ham badiiy san'atlarning bir necha turi qo'llangaligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, yuqoridagi birinchi baytda tazod (zimistonlar - gulistonlar) san'ati qo'llangan. Keyingi baytlarda ham turli xil badiiy san'atlarlarni tahlilga tortishimiz mumkin:

Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o'zni,  
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Yuqoridagi misralarda tanosub san'atining o'ziga xos namunalari: nastaran, yosuman, nargis kabi so'zlar orqali ochib berilgan.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,  
Sarv gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.

Tanosub - qumrilar, bulbul, gul, sarv. Intoq-bulbulning oh-u fig'on chekishi; Intoq-mumtoz adabiyotda jonlantirishning bir turi sifatida qaraladi, ya'ni u nutq bilan bog'liq badiiy san'at bo'lib, narsa va hodisalarni nutq egasi sifatida tasvirleydi. Yuqoridagi baytda ham u ifoda ko'lamini yanada oshirishga, tasvirning ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,  
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Tashxis-bulbul o'qug'och yig'lab; Mumtoz adabiyotda eng keng tarqalgan badiiy san'at turlaridan biri. Unda shaxsga xos sifatlarni jonsiz narsa va hodisalarga beriladi. Ikkinchi misrada ham shoir g'unchaning qizarishini "qon yutish" bilan qiyoslab, jonlantiradi.

Furqat ijodini o'rganar ekanmiz, shoir lirikasining mavzu ko'lami kengligi, tasvir ifodasining ta'sirchanligi, lirik qahramon ruhiyatining to'laqonli ochib berilishini ko'rishimiz mumkin. She'rlarida qo'llangan tasviriy vositalar va badiiy san'atlar shoirning poetik mahoratidan dalolat berib, ijodkor tilining lug'aviy boyligi va so'z qo'llash mahoratini belgilashda alohida ahamiyatga ega.



Fikrlarimni yakunlar ekanman, Furqat hayoti, ijodini o‘rganish jarayonida yozgan she‘rim bilan xulosalamoqchiman:

Yig‘ladi she‘riyatda g‘amga giriftor Furqat,  
Ona yurt jamoliga har on intizor Furqat,  
O‘z yurtida topmadi qardoshidan mehr-u vafo  
O‘zga elda chaman izlar fasli navbahor Furqat.  
Ko‘ngil yorni, yurak yurt sog‘inchin qumsar hargis,  
Shoir dardini tinglab subhidam yig‘lar nargiz.  
Hajr yuki sol o‘ldi, mulki Qoshg‘ar bag‘rida  
Yurtda ag‘yor she‘r ahlin, ta‘qib etar izma-iz.  
Vatan tuprog‘iga yov bo‘lsa doim hukmron,  
Avom nola aylajak, avj olar oh-u fig‘on  
Yashashga kun yo‘q xalqqa, ziyoliga halovat  
Shoir ahli darbadar, o‘zga elda bag‘ri qon.  
Yuraklarda yashaysan ona Turon, ona Turon,  
Darbadar farzandlaring, intilishlar sen tomon  
Furqat, Zavqiy, Muqimiy firoqingda to‘kdi yosh  
Yashayapsan, ona Turon, ular ko‘nglida hamon.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Furqat. Muhabbat yo'lida, she'rlar-Toshkent.Yangi asr avlodi.2009.
2. Maxmidjonov, S. (2023). O'ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. *Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar*, 2(6), 1231-1235.
3. Maxmidjonov, S. D. O. G. L. (2023). O 'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(6), 520-524.
4. Maxmidjonov, Shoxruxbek Dilshod O'G'Li (2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (6), 520-524.
5. Maxmidjonov, S. (2023). THE GENESIS OF THE IMAGE OF AN INTELLECTUAL IN UZBEK LITERATURE. *Modern Science and Research*, 2(6), 1231-1235.
6. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic Interpretations Of The Edges Of The Human Psyche. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
7. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
8. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
9. Qosimov, A. A. (2020). "DORIAN GREYNING SURATI" VA "OYNADAGI ODAM"ROMANLARIDA RAMZIY IFODANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKLARI. *Nazariy Va Amaliy Fan*, (5), 590-592.

